



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILIDA TINGLAB TUSHUNISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Xalilova Sevara Kamoliddin qizi

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida (7–11 yosh) ingliz tilida tinglab tushunish kompetensiyasini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil etilgan. Yosh o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, samarali metodlar asosida tinglashning kommunikativ malaka rivojidadagi o'rni yoritilib, O'zbekiston va xorijiy tajribalar qiyosiy o'rganilgan.

Kalit so'zlar: tinglab tushunish, listening kompetensiyasi, boshlang'ich ta'lim, ingliz tili, kommunikativ kompetensiya, CEFR, A1 daraja, yosh o'quvchilar, metakognitiv strategiyalar, raqamli texnologiyalar, eshitib idrok etish, til ko'nikmasi.

ЗНАЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИИ АУДИРОВАНИЯ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Халилова Севара Камолиддин кизи

Наманганский государственный институт иностранных языков имени Исхақхона Ибрата, базовый докторант

Аннотация

В статье анализируются теоретические и практические аспекты формирования компетенции аудирования на английском языке у учащихся начальных классов (7–11 лет). Раскрыты психологические особенности младших школьников, роль аудирования в развитии коммуникативной компетенции; проведено сравнение опыта Узбекистана и зарубежных стран.

Ключевые слова: аудирование, компетенция аудирования, начальное образование, английский язык, коммуникативная компетенция, CEFR, уровень A1, младшие школьники, метакогнитивные стратегии, цифровые технологии, восприятие на слух, языковые навыки.

THE IMPORTANCE OF DEVELOPING ENGLISH LISTENING COMPREHENSION COMPETENCE IN PRIMARY SCHOOL LEARNERS

Xalilova Sevara Kamoliddin qizi

Is'hoqxon Ibrat Namangan State Institute of Foreign Languages, Doctoral Researcher

Abstract

This article analyses the theoretical and practical dimensions of developing English listening comprehension competence in primary school learners (aged 7–11). It examines young learners' psychological characteristics, effective teaching methods, clarifying the role of listening in communicative competence, and compares Uzbek and international experience.

Keywords: listening comprehension, listening competence, primary education, English language, communicative competence, CEFR, A1 level, young learners, metacognitive strategies, digital technologies, aural perception, language skills.

Hozirgi globallashuv sharoitida ingliz tili xalqaro muloqot, ilm-fan va axborot almashinuvining yetakchi vositasiga aylandi. Shu bois dunyoning aksariyat mamlakatlarida chet tilini o'rganishni erta yoshdan boshlash tendensiyasi kuchaymoqda. Til o'zlashtirishning tabiiy ketma-ketligida tinglab tushunish ko'nikmasi birlamchi o'rin egallaydi: bola avval eshitadi, so'ng gapiradi, keyin o'qiydi va yozadi. Binobarin, eshituv orqali idrok etish boshqa barcha nutqiy faoliyat turlarining poydevorini tashkil etadi.

Tilshunoslik va metodika fanida tinglab tushunish uzoq vaqt mobaynida "passiv" ko'nikma sifatida qaralib, uni o'qitishga yetarlicha e'tibor berilmagan. J. Field ta'kidlaganidek, an'anaviy amaliyotda tinglash ko'pincha o'rgatilmaydi, balki savol-javob orqali sinaladi; natijada o'quvchi tushunish jarayonini emas, balki uning mahsulinigina namoyish etadi [6; 14-b.]. Holbuki, S. Krashen ilgari surgan "tushunarli kirim" (comprehensible input) nazariyasiga ko'ra, til o'zlashtirishning asosiy manbai o'quvchi darajasidan bir pog'ona yuqori bo'lgan, ma'noga yo'naltirilgan eshituv kirimidir [12; 21-b.].

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ingliz tilida tinglab tushunish

kompetensiyasini shakllantirishning nazariy asoslari, yosh xususiyatlari bilan bogʻliq psixologik omillar, CEFR hujjatlaridagi talablar hamda zamonaviy va samarali metodlar nazariy va amaliy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Shuningdek, Oʻzbekiston va xorijiy tajribalar qiyoslanib, ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Oʻzbekistonda chet tillarini oʻqitish tizimini isloh qilishga davlat siyosati darajasida eʼtibor qaratilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875-son qarori bilan taʼlimning barcha bosqichlarida chet tilini uzluksiz oʻrganish tizimi joriy etilib, boshlangʻich sinflardan boshlab ingliz tilini oʻqitish yoʻlga qoʻyildi [15]. 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori esa xorijiy tillarni oʻrganishni sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarish, zamonaviy metodikalar va xalqaro standartlarni joriy etishni asosiy vazifa qilib belgiladi [16]. Bu hujjatlar, xususan, chet tillariga ixtisoslashtirilgan maktablar zimmasiga kommunikativ yoʻnaltirilgan taʼlim sifatini taʼminlash masʼuliyatini yuklaydi.

Boshlangʻich bosqichda kommunikativ malakaning shakllanishi koʻp jihatdan tinglab tushunish koʻnikmasining qanchalik puxta shakllanganiga bogʻliq. Agar oʻquvchi eshitilgan nutqni idrok eta olmasa, ogʻzaki muloqotda ishtirok etishi, koʻrsatmalarni bajarishi va keyingi bosqichlardagi murakkabroq matnlarni oʻzlashtirishi qiyinlashadi. Aynan shu sababli 7–11 yoshli oʻquvchilarda eshituv kompetensiyasini maqsadli rivojlantirish dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida koʻzga tashlanadi. Mavzuning dolzarbligini, shuningdek, mahalliy sharoitda yosh xususiyatlariga moslashtirilgan, ilmiy asoslangan eshituv materiallari va metodikasining yetarli emasligi bilan ham izohlanadi.

Zamonaviy talqinda tinglab tushunish (listening) sodda eshitish (hearing) bilan tenglashtirilmaydi. Eshitish — tovush toʻlqinlarini fiziologik qabul qilish boʻlsa, tinglab tushunish — idrok etilgan tovush oqimidan maʼno hosil qilish bilan bogʻliq faol kognitiv jarayondir. M. Rost tinglashni tovushni qabul qilish, lingvistik tahlil va maʼnoni qayta tiklashning oʻzaro bogʻliq bosqichlaridan iborat dinamik faoliyat sifatida taʼriflaydi [19; 8-b.].

Nazariy adabiyotlarda tinglashning ikki yoʻnalishdagi ishlov berish mexanizmi farqlanadi. Quyidan yuqoriga (bottom-up) ishlov berish jarayonida tinglovchi tovushlardan boʻgʻin, soʻz va gaplar tomon harakatlanadi; yuqoridan quyiga (top-down) ishlov berish jarayonida esa u mavjud bilimi, kontekst va kutilmalaridan kelib chiqib maʼnoni bashorat qiladi. I. S. P. Nation va J. Newton samarali tinglash bu ikki jarayonning muvozanatli uygʻunlashuvini talab qilishini taʼkidlaydi [13; 38-b.]. J. Field esa tushunish “mahsuli”ga emas, balki tushunish “jarayoni”ga eʼtibor qaratish lozimligini ilgari suradi va tinglashni idrok (perception), boʻlaklashtirish (parsing) va undan foydalanish (utilisation) bosqichlariga ajratadi [6; 110-b.]. A. Anderson va T. Lynch ham tinglovchi eshitilgan toʻliqsiz axborotni oʻz bilimi va konteksti yordamida toʻldirib, faol maʼno yaratuvchi sifatida ishtirok etishini taʼkidlaydilar [1; 11-b.].

Sxema nazariyasiga koʻra, tinglovchi yangi axborotni xotiradagi mavjud bilim tuzilmalari bilan bogʻlaganda tushunish samaraliroq kechadi. Shu maʼnoda tinglab tushunish kompetensiyasi nafaqat lingvistik, balki kognitiv, ijtimoiy-madaniy va strategik tarkibiy qismlarni ham qamrab oladi. L. Vandergrift bu kompetensiyani til bilimini real vaqt rejimidagi maʼno hosil qilish jarayonida boshqarish qobiliyati sifatida tavsiflaydi [22; 192-b.]. Demak, kompetensiya tushunchasi alohida olingan koʻnikmadan kengroq boʻlib, bilim, koʻnikma va strategiyalarning amaliy muloqotda namoyon boʻladigan yaxlitligini bildiradi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari (7–11 yosh) J. Piage davrlashtiruvchi boʻyicha konkret operatsiyalar bosqichida boʻladilar: ularning tafakkuri koʻrgazmali, konkret va amaliy harakatga bogʻliq, mavhum tushunchalarni esa qiyin oʻzlashtiradi. L. Cameron taʼkidlaganidek, bu yoshdagi bolalar tilni tahlil qilish orqali emas, balki maʼnoli faoliyat jarayonida, koʻrgazmalilik va takror yordamida oʻzlashtiradi [3; 17-b.]. Shu bois eshituv materiallari konkret, vizual qoʻllab-quvvatlangan va bolaning tajribasiga yaqin boʻlishi lozim.

L. Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi (zone of proximal development) gʻoyasi boshlangʻich bosqich metodikasi uchun muhim tayanch hisoblanadi: oʻquvchi kattalar yoki tengdoshlari koʻmagida (scaffolding) mustaqil bajara olmaydigan vazifalarni uddalaydi va asta-sekin mustaqillikka oʻtadi [24; 86-b.]. Tinglash mashqlarida bu prinsip oʻqituvchining tayanch savollari, kalit soʻzlarni berib qoʻyishi, takror tinglash imkoniyati va vizual ishoralar orqali amalga oshiriladi.

Bu yoshdagi oʻquvchilarning diqqati beqaror va qisqa muddatli, xotira hajmi cheklangan, biroq taqlid, oʻyin va hissiy jalbdorlikka moyilligi yuqori boʻladi. A. Pinter yosh oʻquvchilar uzoq va monoton tinglash topshiriqlarini bajara olmasligini, shuning uchun materiallar qisqa, ritmik va faoliyatga bogʻlangan boʻlishi kerakligini koʻrsatadi [17; 45-b.]. W. Scott va L. Ytreberg esa bolalar bilan ishlashda harakat,

qo‘shiq va o‘yin orqali tinglashni tashkil etish samaradorligini asoslab beradi [20; 21-b.]. Bularning barchasi boshlang‘ich bosqichda tinglash materiallarini soddalashtirish, bo‘laklash va ko‘p modallikka tayanish zarurligini ko‘rsatadi. H. D. Brown chet tilini o‘zlashtirishda hissiy omillar — motivatsiya, o‘ziga ishonch va xavotirning pastligi — muvaffaqiyatga bevosita ta‘sir qilishini ta‘kidlaydi; shu bois yosh o‘quvchilar uchun tinglash muhiti xavotirsiz va rag‘batlantiruvchi bo‘lishi lozim [2; 72-b.].

Kommunikativ kompetensiya til vositalarini real muloqot vaziyatlarida maqsadga muvofiq qo‘llash qobiliyatini bildiradi. Tinglab tushunish bu yaxlit kompetensiyaning retseptiv asosi bo‘lib, produktiv ko‘nikmalar — gapirish va yozish uchun zarur “xomashyo”ni ta‘minlaydi. S. Krashen modeliga ko‘ra, ma‘noli kirim avval o‘zlashtiriladi (intake), keyin esa ishlab chiqarishga (output) aylanadi; shu sababli boshlang‘ich bosqichda bolani gapirishga majburlamasdan, avvalo boy va tushunarli eshituv muhitini yaratish tavsiya etiladi [12; 60-b.].

Zamonaviy metodikada til ko‘nikmalari yakka holda emas, balki integratsiyalashgan tarzda rivojlantiriladi. J. Richards tinglash va gapirishni uzviy bog‘liq, bir-birini quvvatlovchi faoliyat sifatida ko‘rib chiqadi [18; 5-b.]. J. Harmer ham tinglashni ko‘pincha gapirish, o‘qish yoki yozish bilan birlashtirilgan topshiriqlar tarkibida tashkil etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi [10; 303-b.]. CEFRning 2020-yildagi Hamroh hujjatida til faoliyati retseptiv, produktiv, interaktiv va mediatsion turlarga ajratilib, tinglab tushunish retseptiv faoliyatning markaziy komponenti sifatida belgilanadi [5; 47-b.]. Demak, eshituv kompetensiyasini rivojlantirish butun kommunikativ malaka tizimining samaradorligini belgilovchi omildir.

Boshlang‘ich bosqichda tinglashni o‘qitishning eng keng tarqalgan tashkiliy modeli — uch bosqichli (pre-listening, while-listening, post-listening) yondashuvdir. Tinglashdan oldingi bosqichda avvalgi bilimlar faollashtiriladi, leksika tayyorlanadi va kutilmalar hosil qilinadi; jarayon davomida aniq vazifalar bajariladi; tinglashdan so‘ng esa tushunilgan axborot mustahkamlanadi va kengaytiriladi. P. Ur bu izchillik tushunish yukini boshqarishga va o‘quvchini tinglashga psixologik jihatdan tayyorlashga xizmat qilishini ta‘kidlaydi [21; 25-b.]. D. Nunan esa vazifaga asoslangan yondashuvda tinglash real, ma‘noga yo‘naltirilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida tabiiy ravishda rivojlanishini ko‘rsatib, mashqni hayotiy maqsad bilan bog‘lashni tavsiya etadi [14; 25-b.].

Yosh o‘quvchilar bilan ishlashda jismoniy javob (TPR), hikoya tinglash, qo‘shiq va ritmik matnlar hamda “eshit va bajar” topshiriqlari alohida samara beradi, chunki ular tushunishni harakat, ko‘rgazmalilik va o‘yin bilan birlashtiradi. Quyidagi jadvalda asosiy metodlar, ularning mohiyati, afzalliklari va yosh xususiyatlariga mosligi qiyosiy tarzda keltirilgan.

1-jadval. Boshlang‘ich sinflarda listening kompetensiyasini rivojlantirish metodlari va ularning afzalliklari

Metod	Mohiyati va qo‘llanilishi	Asosiy afzalliklari	Yosh xususiyatlariga mosligi
Total Physical Response (TPR)	Buyruq va ko‘rsatmalarni eshitib, ularni jismoniy harakat orqali bajarish	Tushunishni nutqiy javobsiz namoyon etadi, til bilan harakat o‘rtasida bevosita bog‘ hosil qiladi, tilga oid xavotirni pasaytiradi	Bolaning harakatchanligi va konkret-amaliy tafakkuriga to‘liq mos keladi
Hikoya tinglash (storytelling)	Sodda syujetli, takrorlanuvchi til tuzilmalariga ega og‘zaki matnlarni eshitish	Kontekstdan ma‘no chiqarish va prognozlash ko‘nikmasini o‘stiradi, hissiy jalblik orqali motivatsiyani kuchaytiradi	Tasavvur va hikoyaga tabiiy qiziqishdan unumli foydalanadi
Qo‘shiq va ritmik matnlar (songs & chants)	Ohang, qofiya va ritm vositasida leksika hamda	Talaffuz, ritmik idrok va uzoq	Musiq va o‘yinga moyillikka tayanadi,

Metod	Mohiyati va qoʻllanilishi	Asosiy afzalliklari	Yosh xususiyatlariga mosligi
	intonatsiyani idrok etish	muddatli xotirada saqlashni mustahkamlaydi	takrorni zerikarli qilmaydi
“Eshit va bajar” topshiriqlari (listen-and-do)	Eshitilgan axborot asosida chizish, belgilash, raqamlash yoki obyektlarni joylashtirish	Tushunishni koʻrinadigan amaliy natijaga bogʻlaydi va oʻqituvchiga obyektiv nazorat imkonini beradi	Faol harakat va qoʻl mehnatiga ehtiyojni qondiradi
Tinglash bosqichlari (pre-/while-/post-listening)	Tinglashdan oldin, jarayonida va soʻngida tizimli, bosqichli ish olib borish	Kognitiv yukni boshqaradi, oldindan bilimni faollashtiradi va tushunishni izchil chuqurlashtiradi	Diqqatning cheklangan barqarorligini hisobga olib, vazifani kichik qadamlarga boʻladi
Metakognitiv koʻrsatma (metacognitive instruction)	Rejalashtirish, kuzatish va oʻz-oʻzini baholash strategiyalarini ongli oʻrgatish	Mustaqil tinglovchini shakllantiradi, ishonchni oshiradi va kuchsiz oʻquvchilarga koʻproq foyda beradi	Refleksiyani bolaga tushunarli, soddalashtirilgan shaklda joriy etadi

Jadval tahlili shuni koʻrsatadiki, sanab oʻtilgan metodlar boshlangʻich yoshdagi bolalarning konkret-amaliy tafakkuri, harakatchanligi va oʻyinga moyilligiga tabiiy ravishda mos keladi. Jismoniy javob metodi tushunishni nutqdan oldin namoyon etishga imkon berib, Krashenning “sukut davri” gʻoyasi bilan uygʻunlashadi [12; 60-b.]. Hikoya va qoʻshiq esa hissiy jalbdorlik orqali leksika hamda intonatsiyani tabiiy kontekstda mustahkamlaydi va, A. Pinter taʼkidlaganidek, takrorni bola uchun zerikarli emas, balki kutiladigan jarayonga aylantiradi [17; 50-b.].

Ayniqsa, metakognitiv koʻrsatma alohida ahamiyatga ega. C. Goh va Y. Taibning boshlangʻich sinf oʻquvchilari ishtirokidagi tadqiqotida rejalashtirish, kuzatish va oʻz-oʻzini baholash strategiyalarini ongli ravishda oʻrgatish oʻquvchilarda tinglashga oid ishonchni oshirgani va eng katta foydani kuchsiz tinglovchilar olgani aniqlangan [8; 230-b.]. C. Goh keyingi ishlarida bunday jarayonga yoʻnaltirilgan koʻrsatma tinglashni “sinash”dan “oʻrgatish”ga oʻtkazishini koʻrsatadi [7; 195-b.]. S. Graham va E. Macaro ham strategiyalarni oʻrgatish tinglash samaradorligi hamda oʻquvchilarning oʻziga boʻlgan ishonchini sezilarli darajada oshirishini empirik dalillar bilan tasdiqlagan [9; 760-b.]. Demak, samarali metodika nafaqat “nima tinglash”ni, balki “qanday tinglash”ni ham oʻrgatishi lozim.

Raqamli vositalar tinglash taʼlimining imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Audio va videomateriallar, animatsion hikoyalar, interaktiv ilovalar hamda bolalar uchun moʻljallangan podkastlar oʻquvchini sinf devorlaridan tashqaridagi jonli ingliz nutqi bilan tanishtiradi. Tovush va tasvirning birgalikda berilishi ikki tomonlama kodlash (dual coding) tufayli idrok etish va eslab qolishni mustahkamlaydi, bu esa konkret tafakkurli yosh oʻquvchilar uchun ayniqsa muhimdir. PQ-5117-son qarori ham zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini taʼlim jarayoniga keng joriy etishni ragʻbatlantiradi [16].

Shu bilan birga, texnologiyadan foydalanish pedagogik jihatdan asoslangan boʻlishi shart. J. Field haqiqiy (autentik) materiallar boshlangʻich darajadagi oʻquvchilar uchun haddan tashqari murakkab boʻlishi mumkinligini, shuning uchun ularni vazifalarning murakkabligini boshqarish orqali moslashtirish kerakligini taʼkidlaydi [6; 271-b.]. Ortiqcha vizual stimullar kognitiv yukni oshirishi, ekran vaqtining haddan ziyod koʻpligi esa diqqatni susaytirishi mumkin. Binobarin, multimedia vositalari oʻqituvchi vositachiligida, aniq vazifalar va meʼyoriy davomiylik asosida qoʻllanilgandagina samara beradi;

texnologiya o'qituvchini almashtirmaydi, balki uning didaktik maqsadlariga xizmat qiladi.

Xorijiy tajriba boshlang'ich bosqichda tinglash metodikasini boyitish uchun qimmatli manba hisoblanadi. Yevropa mamlakatlarida CEFR asosidagi faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv va kommunikativ metod keng joriy etilgan bo'lib, tinglash topshiriqlari real hayotiy vazifalar atrofida quriladi [4; 9-b.]. Singapur tajribasi esa, C. Goh tadqiqotlarida ko'rsatilganidek, boshlang'ich sinflardayoq metakognitiv strategiyalarni o'rgatishni tizimli ravishda joriy etishi bilan ajralib turadi va bu yondashuv mahalliy sharoitga moslashtirishga arziydidigan amaliyot sifatida baholanadi [8; 222-b.].

L. Cameron va A. Pinter ishlarida umumlashtirilgan xalqaro amaliyot yosh o'quvchilar uchun ma'noli, faoliyatga asoslangan va o'yin orqali tashkil etilgan tinglashni tavsiya etadi [3; 40-b.; 17; 12-b.]. L. Vandergrift va C. Goh esa jarayonga yo'naltirilgan, metakognitiv asosga ega tinglash siklini taklif qiladi [23; 109-b.]. O'zbekiston sharoitida bu tajribalarni mexanik tarzda ko'chirish emas, balki milliy o'quv dasturi, til muhiti va madaniy kontekstga moslashtirish maqsadga muvofiqdir. J. Jalolov chet tilini o'qitish metodikasini mahalliy ta'lim sharoiti bilan uyg'unlashtirish zarurligini asoslab, metodik tamoyillarni o'zbek auditoriyasiga moslashtirish g'oyasini ilgari suradi [11; 78-b.]. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistondagi islohotlar yo'nalishi xalqaro tendensiyalarga mos, biroq amaliyotda jarayonga yo'naltirilgan metodika va yosh xususiyatlariga moslashtirilgan resurslarni kuchaytirish zarur.

O'rganilgan nazariy va amaliy manbalar tahlili bir qator muhim masalalarni yuzaga chiqardi. Birinchidan, tinglashni "sinash" an'anasi bilan uni "o'rgatish" zarurati o'rtasidagi ziddiyat saqlanib qolmoqda; kirish imtihonlari va nazorat ishlarida tushunishning mahsuli o'lchanadi, biroq tushunish jarayonini rivojlantirishga yetarlicha e'tibor berilmaydi [6; 14-b.]. Ikkinchidan, yosh o'quvchilarning psixologik xususiyatlariga moslashtirilgan, CEFR darajalariga muvofiq mahalliy eshituv materiallari hamon tanqis.

Uchinchidan, metakognitiv va strategik ko'rsatmalarning samaradorligi empirik tarzda tasdiqlangan bo'lsa-da [8; 230-b.; 9; 760-b.], bu yondashuvlarni boshlang'ich sinflarda joriy etish o'qituvchilarning maxsus tayyorgarligini talab qiladi. To'rtinchidan, raqamli vositalar imkoniyatlari kengaygan sari ularni didaktik maqsadlarga bo'ysundirish va kognitiv yukni me'yorlash masalasi dolzarblashmoqda. Bu masalalar o'zaro bog'liq bo'lib, ularning yechimi yagona chora bilan emas, balki o'quv dasturi, metodika, resurslar va o'qituvchi malakasini qamrab oluvchi kompleks yondashuv orqali ta'minlanadi.

O'tkazilgan tahlil boshlang'ich sinf o'quvchilarida ingliz tilida tinglab tushunish kompetensiyasini shakllantirish butun kommunikativ malaka tizimining poydevori ekanligini ko'rsatdi. Tinglash faol kognitiv jarayon sifatida talqin etilishi, yosh xususiyatlariga moslashtirilishi va CEFR darajalari bilan uyg'unlashtirilishi lozim. Quyidagi ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Tinglashni "sinash"dan "o'rgatish"ga o'tkazib, mahsulotga emas, balki jarayonga yo'naltirilgan uch bosqichli (pre-listening, while-listening, post-listening) modelni tizimli qo'llash.
2. Boshlang'ich sinf darslariga TPR, hikoya tinglash, qo'shiq va "eshit va bajar" topshiriqlarini muntazam kiritib, tushunishni harakat va ko'rgazmalilik bilan uyg'unlashtirish.
3. Soddalashtirilgan shaklda metakognitiv strategiyalarni (rejalashtirish, kuzatish, o'z-o'zini baholash) o'rgatishni joriy etib, o'quvchilarda mustaqil tinglovchi malakasini shakllantirish.
4. Yosh xususiyatlari va mahalliy kontekstga moslashtirilgan, darajalarga ajratilgan milliy eshituv materiallari hamda audiobazalarni ishlab chiqish.
5. Raqamli va multimedia vositalaridan o'qituvchi vositachiligida, aniq vazifalar va me'yoriy davomiylik asosida foydalanib, kognitiv yukni nazorat qilish.
6. Boshlang'ich bosqich o'qituvchilari uchun jarayonga yo'naltirilgan tinglash metodikasi va strategiyalarni o'rgatish bo'yicha maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tinglab tushunish kompetensiyasini maqsadli, ilmiy asoslangan va yosh xususiyatlariga moslashtirilgan tarzda rivojlantirish ingliz tili ta'limi sifatini oshirishning hal qiluvchi shartlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Anderson A., Lynch T. Listening. Oxford: Oxford University Press, 1988.
2. Brown H. D. Principles of Language Learning and Teaching. 5th ed. White Plains, NY: Pearson Education, 2007.
3. Cameron L. Teaching Languages to Young Learners. Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
4. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning,

Teaching, Assessment. Cambridge: Cambridge University Press, 2001.

5. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume. Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020.
6. Field J. Listening in the Language Classroom. Cambridge: Cambridge University Press, 2008.
7. Goh C. Metacognitive instruction for second language listening development: Theory, practice and research implications // RELC Journal. 2008. Vol. 39, No. 2. P. 188–213.
8. Goh C., Taib Y. Metacognitive instruction in listening for young learners // ELT Journal. 2006. Vol. 60, No. 3. P. 222–232.
9. Graham S., Macaro E. Strategy instruction in listening for lower-intermediate learners of French // Language Learning. 2008. Vol. 58, No. 4. P. 747–783.
10. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. 4th ed. Harlow: Pearson Longman, 2007.
11. Jalolov J. J. Chet til o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 2012.
12. Krashen S. D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. Oxford: Pergamon Press, 1982.
13. Nation I. S. P., Newton J. Teaching ESL/EFL Listening and Speaking. New York: Routledge, 2009.
14. Nunan D. Task-Based Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press, 2004.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-son qarori. Toshkent: Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2012.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son qarori. Toshkent: Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2021.
17. Pinter A. Teaching Young Language Learners. 2nd ed. Oxford: Oxford University Press, 2017.
18. Richards J. C. Teaching Listening and Speaking: From Theory to Practice. New York: Cambridge University Press, 2008.
19. Rost M. Teaching and Researching Listening. 2nd ed. Harlow: Pearson Education, 2011.
20. Scott W. A., Ytreberg L. H. Teaching English to Children. London: Longman, 1990.
21. Ur P. Teaching Listening Comprehension. Cambridge: Cambridge University Press, 1984.
22. Vandergrift L. Recent developments in second and foreign language listening comprehension research // Language Teaching. 2007. Vol. 40, No. 3. P. 191–210.
23. Vandergrift L., Goh C. C. M. Teaching and Learning Second Language Listening: Metacognition in Action. New York: Routledge, 2012.
24. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.